Maktabgacha ta'limda ta'lim tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar	1791
Turdiyev Azamat Gayratovich	
Xalqaro fanlarni implementatsiya qilishning o'quv jarayonidagi texnologiyalari	1794
Yusupova Xabiba Iriskulovna	
Nutqiy (so'zlash) kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari	1797
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Valijonova Durdonaxon Sherzodjon qizi	
Использование игровых технологий в образовательном процессе подготовки старших дошкольников к школьному обучению	1799
Маханова Малика Жумабек кизи	
Организация дошкольного образования в условиях цифровизации общества в ДОО	1803
Умурзакова Умида Наримановна	
Формирование механизмов нравственного воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных традиций и ценностей	1807
Хуррамова Гузал Равшановна	
Globalashuv sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari	1810
Norov Nodir Jo'rayevich	
Enigmatik matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi	1814
Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1818
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ta'limda innovatsion jarayonlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyati	1823
Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	
Bolalarning tarbiyasiga zamonaviy multfilmlar ta'siri	1826
Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi	
Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik tizimini takomillashtirish	1829
Nasiba Djumanioyozova Bekmamatovna	
Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni	1833
Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna	
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir	1836
D. Teshaboyev, Z. Boymatova	
Eshitishda nuqsoni bor bo'lgan o'quvchilarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish va boshqarish samaradorligi	1839
Boymirzayeva Madina Ilhomjon qizi	
Elektrodinamika bo'limini o'qitishda zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-metodik tahlili	1842
Abdullayev Botirxon Ismoilovich	
Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida	1846
Abdullayeva Moxidilxon Dilshodbek qizi	
Biologiya ta'limida konseptual modelni qo'llash va uning samaradorligini baholash	1850
Abdurasulova Gulrux Xabibullaevna	
Dizartriyali bolalarning ovoz va nafasni rivojlanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari	1854
Abidova Nilufar Zakirovna, Shaxodjayeva Nilufar Raimjonovna	
Kasbiy etika va deontologiya: bo'lajak shifokorlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar	1857
Ahmedova Nigora Dadahonovna	
Tabiiy fanlar va matematika integratsiyasi orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi	1862
Ashurova Gulhayo Nurali qizi, Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv	1865
Asranbayeva Munojot	
Chet tili mashg'ulotlarida yozma nutqni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	1868
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	



Ekologik muhit asosida bolalar psixo-fiziologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish.....	1872
<i>Axmedjonova Nozigul Zaripovna</i>	
O'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish	1876
<i>Baxrillayeva Moxichexra Raxmatillayevna</i>	
Xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari.....	1880
<i>Bayzakova Malika</i>	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	1884
<i>Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna, Saydinova Barno</i>	
O'yin texnologiyalari asosida matematik bilimlarni takomillashtirish va uning ahamiyati.....	1889
<i>Botirova M. B.</i>	
Talabalar orasida ko'p uchraydigan akademik muvaffaqiyatdan qo'rqish va uning yechimlari.....	1892
<i>Celal Algan</i>	
Kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorgarlik izlanishlari.....	1896
<i>D. G'. Akramova</i>	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	1899
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
<i>Dostanova Kamola Alisher qizi</i>	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
<i>Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna</i>	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
<i>Elyor A Pazilov</i>	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
<i>Ermatova Gullola Ziyod qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
<i>Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
<i>Gapparova Zilola Neymat qizi</i>	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
<i>Hayitboevna Zarina Otazarovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
<i>Hojimatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
<i>Inobatxon Toshpo'latova</i>	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni.....	1937
<i>Jo'iliboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i>	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
<i>Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich</i>	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
<i>Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna</i>	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
<i>Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li</i>	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
<i>Jumayev Yunus Rashidovich</i>	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
<i>Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna</i>	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
<i>Karimov Ilhom Normamatovich</i>	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
<i>Karimov Ravshanbek Rizomatovich</i>	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
<i>Kayumova Dilnoza Patxulla qizi</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	<p>Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi..... 1978 Madumarov Shodonbek Az'amjonovich</p> <p>Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili..... 1982 Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi</p> <p>Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlari 1986 Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati..... 1990 Murodova Farangis G'anisherovna</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari 1994 Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi</p> <p>Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli 1997 Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li</p> <p>Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi 2003 Normamatova Dilfuza Turdikulovna</p> <p>Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati 2008 Quldosheva Dilso'z Sunnatovna</p> <p>Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish..... 2011 Romanova Lola Karimbayevna</p> <p>Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish..... 2014 Rustamova Gulmira Yoryigit qizi</p> <p>Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari 2018 Sadinov Oybek Ziyot o'g'li</p> <p>Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish 2021 Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</p> <p>Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish 2024 Shermuxevedova Dilnozaxon Raximdjanoyna</p> <p>Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi 2028 Shirinov Feruzjon Shuxratovich</p> <p>Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi 2031 Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li</p> <p>Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi 2034 Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich</p> <p>Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish 2039 Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi</p> <p>Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish 2043 Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi</p> <p>Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi 2046 Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna</p> <p>Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash 2050 Umarov Abdurasul Abduraximovich</p> <p>Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi..... 2058 Umarov Xusanboy Rustamovich</p> <p>Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences..... 2062 Usmanova Nargiza Kudiratullayevna</p> <p>Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlari (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil) 2065 Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich</p> <p>Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari 2069 Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li</p> <p>Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ... 2073 Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li</p> <p>Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari 2080 Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna</p>
-------------------------------------	--



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoirra Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yoldasheva Dilshoda To'lqinovna	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjiakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasiidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'lqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	

RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Hayitboyeva Zarina Otanazarovna

NDPI 1-kurs tayanch Doktoranti

130001-pedagogika nazariyasi, Pedagogik ta'limotlar tarixi

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativ tafakkur tushunchasi, raqamli ta'lim muhitining afzalliklari hamda raqamli pedagogika konsepsiyalarining mazmun-mohiyati tahlil qilingan. Shuningdek, interaktiv platformalar, raqamli o'yinlar va sun'iy intellektga asoslangan dasturlar kabi raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkurni shakllantirishdagi o'rni ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: interaktiv platformalar, raqamli o'yinlar, sun'iy intellekt dasturlari, raqamli pedagogika, kreativ tafakkur.

Abstract: This article analyzes the concept of creative thinking, the advantages of digital learning environments, and the theoretical foundations of digital pedagogy. It also examines the role of digital learning tools – including interactive platforms, digital games, and artificial intelligence-based programs – in developing creative thinking among primary school students.

Key words: interactive platforms, digital games, artificial intelligence programs, digital pedagogy, creative thinking.

Аннотация: В статье проанализированы понятие творческого мышления, преимущества цифровой образовательной среды и теоретические основы цифровой педагогики. Кроме того, в научном аспекте раскрыта роль цифровых средств обучения – интерактивных платформ, цифровых игр и программ на основе искусственного интеллекта – в формировании творческого мышления учащихся начальных классов.

Ключевые слова: интерактивные платформы, цифровые игры, программы искусственного интеллекта, цифровая педагогика, творческое мышление.

KIRISH

Jahonda ta'limning boshlang'ich bosqichlaridan boshlab bilimlarni chuqur va mustahkam egallash, universal o'quv harakatlarini o'zlashtirish, mustaqil fikrlashni shakllantirishning birlamchi omili sifatida o'quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimlarida xalqaro baholash dasturlarining (PISA, TIMSS) egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llashga oid natijalariga asoslanib, ta'limni korreksiyalash va modernizatsiyalash, o'quv materiallarini takomillashtirishda o'quvchilarning ijodiy faoliyati darajasini oshiruvchi pedagogik yondashuvlardan keng foydalanilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonining mazmuni, shakli va metodlariga sifat jihatidan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning kreativ tafakkurini rivojlantirish bugungi raqamli jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki kreativ fikrlay oladigan shaxs axborot oqimi keskin kuchaygan, yangiliklar tez almashinadigan va murakkab kompetensiyalar talab etiladigan zamonda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladi.

Raqamli ta'lim muhiti o'quvchining individual qobiliyatlari, fikrlash tezligi, mustaqil izlanish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlashga imkon beruvchi keng didaktik resurslarga ega. Shu bilan birga, mazkur muhitning to'g'ri tashkil etilmaganligi o'quvchi diqqatining pasayishi, ijodiy faollikning susayishi, texnologiyaga haddan tashqari qaramlik kabi bir qator pedagogik muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Shuning uchun raqamli ta'lim sharoitida kreativ tafakkurni shakllantirish jarayonining nazariy-metodologik asoslarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda kreativ tafakkurni rivojlantirish metodikasi bo'yicha ilmiy izlanishlar mavjud bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi an'anaviy ta'lim modeli asosida yondashishni ko'zda tutadi. Raqamli ta'lim muhiti uchun moslashgan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga, psixologik



rivojlanish bosqichlariga va zamonaviy ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlariga mos kompleks yondashuv esa yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ tafakkur – bu shaxsning mavjud bilimlar, tajriba va axborotlar asosida yangi, noodatiy, muqobil yechimlar yaratish qobiliyati bo'lib, u tafakkurning eng yuqori darajasini ifodalaydi. Kreativ fikrlash jarayonida o'quvchi voqelikni standart ko'rinishda emas, balki yangicha nuqtai nazardan ko'ra oladi, o'z g'oyalarini erkin ifodalaydi va muammolarga original yondashuvlarni taklif qila oladi.

Ilmiy adabiyotlarda kreativ tafakkur konvergent va divergent fikrlash jarayonlarining uyg'unlashuvi natijasi sifatida talqin qilinadi. Divergent fikrlash o'quvchining bir muammoga bir nechta turli yechimlar taklif qila olishini ta'minlasa, konvergent fikrlash ularning ichidan eng maqbul variantni tanlashga yordam beradi. Aynan shu jarayon o'quvchining mustaqil, ijodiy va moslashuvchan fikrlash kompetensiyalarini shakllantiradi. Boshlang'ich ta'lim davri kreativ tafakkur shakllanishining eng sezgir bosqichi sanaladi. Chunki bu yoshda idrok, tasavvur, mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatni tushunish va obrazli tafakkur jadal rivojlanadi. To'g'ri tashkil etilgan raqamli ta'lim muhiti o'quvchilarning rang-barang tasavvurlarini kuchaytiradi, izlanish faoliyatini rag'batlantiradi va ijodiy g'oyalar generatsiyasiga qulay sharoit yaratadi.

Kreativ tafakkur shaxsning mavjud bilimlar va tajriba asosida yangi, noodatiy, funksional yechimlar yaratish qobiliyati bo'lib, zamonaviy pedagogika fanida yetakchi kompetensiyalardan biri sifatida talqin qilinadi. J. Gilfordning divergent tafakkur nazariyasi, E. Torrancening kreativlikni o'lchash modellari, A. Maslouning o'zini namoyon qilish tamoyili kreativ tafakkurning psixologik-pedagogik negizini tashkil etadi. Mazkur ilmiy yondashuvlar kreativ tafakkurni o'quvchi shaxsining mustaqil, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlarga original yondashish hamda o'z nuqtai nazarini erkin ifodalash ko'nikmasi sifatida belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga xos kognitiv rivojlanish bosqichlari kreativ tafakkur shakllanishi uchun muhim poydevor hisoblanadi. Bu davrda obrazli fikrlash, tasavvur, assotsiativ bog'lanishlar, mulohaza yuritish qobiliyatlari jadal rivojlanadi. Shuning uchun kreativ tafakkurni rivojlantirish jarayonida o'yin metodlari, ko'rgazmali vositalar, tajriba, muammoli topshiriqlar va multimodal o'quv materiallarining qo'llanishi samaradorlikni oshiradi.

Raqamli ta'lim – bu o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni, multimedia platformalarini, sun'iy intellektga asoslangan dasturlarni, simulyator va interaktiv o'yinlarni kiritish orqali ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan yangicha yondashuvdir. Raqamli ta'lim muhiti o'quvchiga vizual, audio, kinestetik axborotlarni bir vaqtda qabul qilish imkonini beradi, bu esa kreativ tafakkur jarayonini faollashtiradi.

Interaktiv platformalar (Kahoot, Wordwall, Liveworksheets), ijodiy dasturlar (Canva, Scratch, BookCreator), sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan o'quv servislari o'quvchilarning mustaqil izlanish, g'oya yaratish, muammoga turli yechimlarni topish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli muhitda beriladigan topshiriqlar o'quvchilarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga, turli variantlarni solishtirishga, noodatiy g'oyalarni shakllantirishga undaydi.

Shuningdek, raqamli o'yinlar va simulyatorlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilari abstrakt jarayonlarni obrazli va amaliy shaklda qabul qiladi, bu esa ijodiy fikrlashning tabiiy ravishda kuchayishiga olib keladi. Ta'lim jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, ularning emotsional holatini barqarorlashtiradi va izlanish faoliyatini rag'batlantiradi. Kreativ tafakkurni rivojlantirishda raqamli ta'lim vositalarining metodik qo'llanilishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Divergent fikrlashni rag'batlantirish metodlari

1. O'quvchilarga bir muammoga bir nechta yechim taklif qilish topshiriqlari beriladi.
2. Interaktiv platformalarda "open-ended" vazifalar tashkil etiladi.
3. O'yinlashtirilgan topshiriqlar orqali erkin ijodiy yondashuv rag'batlantiriladi.

2. Muammoli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish

Raqamli muhitda muammoli vaziyatlar vizual va simulyativ ko'rinishda taqdim etilishi mumkin. Bu o'quvchida sabab–oqibatni chuqur anglash, tahliliy va kreativ fikrlashni faollashtiradi.

3. Vizual va audiovizual materiallardan foydalanish

Raqamli animatsiyalar, grafikalar, infografikalar, videodarsliklar o'quvchilarda obrazli tafakkur va assotsiativ bog'lanishlarni kuchaytiradi.

4. Loyihaviy va tadqiqot metodlari

Raqamli ta'lim muhiti kichik yoshdagi o'quvchilarning loyihaviy fikrlashini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi:

- mini-proyektlar;
- guruhiy ijodiy topshiriqlar;
- elektron kollajlar va raqamli portfoliolar.

5. Raqamli muhit kreativ tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari

Raqamli jarayon o'quvchining motivatsiyasini oshiradi, emotsional ishtirokni kuchaytiradi va psixologik xavfsiz o'quv muhitini yaratadi. Vizual–kinestetik idrokning kuchayishi kreativ tafakkurning faollashishiga olib keladi. Shuningdek:

- o'yin elementlari psixologik bosimni kamaytiradi;
- mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi;
- tasavvur va fantaziya jarayonlari kengayadi.

Bularning barchasi kreativlikning psixologik komponentlari – erkinlik, moslashuvchanlik, originallik, tezkor o'ylash – rivojlanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishda bir nechta zamonaviy usullardan foydalanildi va tadqiqot olib borildi. Ushbu ilmiy tadqiqot Xo'jayli tumani 3-maktabida 2024–2025 o'quv yilida amalga oshirildi. Tajriba-sinov ishlari boshlang'ich sinflarda kreativ tafakkurni raqamli ta'lim vositalari orqali rivojlantirish samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqotda jami 3 ta sinf – 2-“A”, 3-“B” va 4-“A” sinflaridan 92 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Sinflar tajriba va nazorat guruhlariga bo'lingan bo'lib, tajriba guruhlarida raqamli metodlar asosida darslar tashkil etildi, nazorat guruhlarida esa an'anaviy usullar qo'llandi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodlar:

Tajriba-sinov jarayonida kreativ tafakkur rivojlanishini aniqlash va baholash uchun quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. Diagnostik metodlar:

- Torrance Creative Thinking Test (adaptatsiya qilingan shakli) – o'quvchilarning originallik, moslashuvchanlik, tafakkur tezligi va tasavvur darajasini aniqlash uchun;
- Assotsiativ fikrlash testi – o'quvchilarning obrazli va erkin fikrlash ko'nikmalarini baholash uchun;
- Muammoli vaziyatni hal qilish testi – divergent fikrlashni aniqlashda qo'llangan.

2. Pedagogik kuzatuv:

Dars jarayonlarida o'quvchilarning mustaqil ishlashi, g'oya bildirish faolligi va ijodiy topshiriqlardagi ishtiroki muntazam qayd etildi.

3. Eksperimental metod:

Tajriba guruhlarida quyidagi raqamli vositalar asosida darslar o'tkazildi:

- Wordwall, Kahoot, Scratch, Canva, LearningApps;
- interaktiv o'yinlashtirilgan topshiriqlar;
- multimediy taqdimotlar;
- mini-loyiha va raqamli portfoliolar.

Nazorat guruhlarida mazkur vositalar qo'llanmagan holda faqat an'anaviy dars metodlari ishlatildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot yakunida tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasida kreativ tafakkur rivojlanishi bo'yicha sezilarli farqlar kuzatildi.

1. Kreativ tafakkur ko'rsatkichlarining o'sishi

Tajriba guruhlarida:

- originallik ko'rsatkichi taxminan 27–30% oshdi;



- moslashuvchan fikrlash – 24%ga yaqin;
 - tasavvur va fantaziya qobiliyati – 30%dan ortiq;
 - muammoli vaziyatga noodatiy yondashish darajasi – 25% oshdi.
- Nazorat guruhlarida esa o'sish 5–9% atrofida bo'lib, raqamli muhitning afzalliklari yaqqol namoyon bo'ldi.

2. O'quvchilar faolligi va motivatsiyasining oshishi

Tajriba guruhidagi o'quvchilarda dars jarayonidagi faollik sezilarli oshgan, g'oya bildirishi yanada erkinlashgan, jamoa bilan ishlashda esa ahamiyatli o'zgarishlar kuzatilgan.

3. Mustaqil ijodiy topshiriqlar sifati

Raqamli loyihalar, raqamli hikoya yaratish (digital storytelling), mini-komikslardan iborat topshiriqlar sifatida ham ancha yaxshilanish kuzatildi. O'quvchilar o'z ishlarida vizual elementlar, grafiklar, animatsiya va muqobil g'oyalar yaratishdan faol foydalana boshladilar.

Umumiy natija

Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim vositalari boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkur ko'nikmalarini an'anaviy metodlarga nisbatan ancha tezroq va samaraliroq shakllantiradi. Raqamli muhitning interaktivligi, multimodal axborotlar taqdimoti va o'yinlashtirilgan topshiriqlar ijodiy fikrlashni tabiiy ravishda faollashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari raqamli ta'lim muhiti boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini rivojlantirishda kuchli pedagogik resurs ekanini yaqqol namoyon etdi. Kreativ tafakkur shaxsning mustaqil o'ylashi, original g'oyalar yaratishi, noodatiy yechim topishi kabi kompetensiyalarni o'z ichiga olgan holda zamonaviy ta'lim jarayonining asosiy mezonlaridan biriga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, raqamli platformalar, interaktiv o'yinlar, multimedia vositalari, sun'iy intellektga asoslangan dasturlar o'quvchilarda divergent fikrlash, tasavvur, tahliliy yondashuv va ijodiy faoliyatni yanada faollashtiruvchi samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xo'jayli tumani 3-maktabida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, raqamli vositalar qo'llangan sinflarda kreativ tafakkurning asosiy ko'rsatkichlari – originallik, moslashuvchanlik, tasavvur va muammoli vaziyatni hal qilish qobiliyatlari – nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori darajada o'sgan. Bu esa raqamli ta'lim muhiti kichik yoshdagi o'quvchilar psixologik va intellektual rivojlanishiga mos ekanini, ularning motivatsiyasini oshirishini hamda bilimlarni mustaqil izlash va tahlil qilish jarayonini qo'llab-quvvatlashini tasdiqlaydi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalarni metodik asosda qo'llash o'quv jarayonini faollashtiradi, o'quvchilarning emotsional ishtirokini kuchaytiradi, o'yinlashtirilgan darslar orqali ijodiy fikrlashga tabiiy tarzda undaydi. Raqamli loyihalar, multimediya mashg'ulotlari, interaktiv topshiriqlar o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, g'oya yaratishga, o'z nuqtai nazarini asoslab berishga o'rgatadi. Natijada kreativ tafakkurning asosiy komponentlari – tezkorlik, moslashuvchanlik va originallik – tobora shakllana boradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham yuqori samaradorlikka ega ekanini tasdiqlaydi. Bu esa boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish va maktablar infratuzilmasini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Olingan natijalar mazkur yo'nalishda keyingi tadqiqotlar uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov, I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. – Toshkent, 2023.
3. Ziyayev, B., va Qodirova, M. Pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlar. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
4. Hasanboeva, O., va Yo'ldosheva, M. Boshlang'ich ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
5. Davletov, A. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Universitet, 2019.
6. Torrance, E. P. Creativity: Theory and Practice. – Boston: Ginn, 2018.
7. Guilford, J. P. "Creativity Research: Past, Present and Potential." Journal of Creative Behavior, 2019.
8. Begimqulov, U. Sh. Raqamli ta'lim asoslari. – Toshkent: Innovatsiya ziyo, 2022.
9. Xo'jayev, R. Interfaol metodlar va ularning ta'lim jarayonidagi roli. – Toshkent: Fan, 2021.
10. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris, 2020.
11. Shavkatova, G. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirishda raqamli vositalarning o'rni." Ta'lim va taraqqiyot jurnali, №4, 2023.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.